

Qashqadaryo viloyatida demografik holat

2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026- yilning 1-aprel holatiga Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni **3 731,8** ming kishini tashkil etib, 2026- yilning mos davriga nisbatan **2,1** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **21,3** ming nafarni, vafot etganlar **4,0** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **17,3** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **1** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **5** kishini, qayd etilgan nikohlar **5,0** mingtani, nikohdan ajralishlar **0,9** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 731,8	<i>ming kishi</i>
Tug'ilganlar soni	21,3	<i>ming kishi</i>
Vafot etganlar soni	4,0	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	1	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	5	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	5,0	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	0,9	<i>ming birlik</i>

II. Doimiy aholi soni


Qashqadaryo viloyatida doimiy aholi soni 2026- yil 1-aprel holatiga ko'ra **3 731,8** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **75,8** ming kishiga yoki **2,1** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 588,6** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **42,6%**), qishloq joylarda esa **2 143,2** ming kishi (**57,4%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 838,8** ming kishini (**49,3%**), erkaklar esa **1 893,0** ming kishini (**50,7%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	3 656,0	3 731,8	102,1
Qarshi shahri	302,1	307,2	101,7
Shahrisabz shahri tumanlar:	150,7	153,2	101,7
G'uzor	228,0	233,1	102,2
Dehqonobod	163,5	166,9	102,1
Qamashi	301,3	308,3	102,3
Qarshi	281,2	287,9	102,4
Koson	321,0	328,3	102,3
Kitob	288,8	294,3	101,9
Mirishkor	132,9	135,5	102,0
Muborak	95,7	97,4	101,8
Nishon	171,5	175,3	102,2
Kasbi	218,7	223,1	102,0
Ko'kdala	195,6	201,2	102,9
Chiroqchi	275,8	282,0	102,2
Shahrisabz	239,8	243,3	101,5
Yakkabog'	289,4	294,8	101,9

Qashqadaryo viloyatida 2026- yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **130,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **2,7** kishiga ortgan (2025- yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **127,9** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **21,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,2** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **0,9** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4,0** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan, **0,3** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **21,3** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **11,1** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,1** %), qiz bolalar soni **10,2** ming kishini (**47,9** %) va shahar joylarida **8,6** ming kishini (**40,4** %), qishloq joylarida **12,7** ming kishini (**59,6** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **4,0** ming kishini, shundan erkaklar **2,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,0** %), ayollar **1,8** ming kishini (**45,0** %) va shahar joylarida **1,9** ming kishini (**47,5** %), qishloq joylarida **2,1** ming kishini (**52,5** %) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **5,0** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan teng.

Nikohdan ajralishlar soni **0,9** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **5,0** ming birlikni, shundan shahar joylarida **2,0** ming birlikni (**40,0** %), qishloq joylarida **3,0** ming birlikni (**60,0** %) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **0,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,5** ming birlikni (**55,6** %), qishloq joylarida **0,4** ming birlikni (**44,4** %) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026- yil yanvar-mart oylarida ko'chib kelganlar jami soni **4 137** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **4 136** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **1** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **6 598** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **6 593** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **5** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Qashqadaryo viloyati	4 137	4 136	1	6598	6593	5
Qarshi shahri	869	869	0	1 227	1 225	2
Shahrisabz shahri	300	300	0	363	363	0
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	135	135	0	256	256	0
Dehqonobod	115	115	0	282	282	0
Qamashi	255	255	0	505	505	0
Qarshi	692	692	0	565	565	0
Koson	215	215	0	334	334	0
Kitob	177	177	0	473	472	1
Mirishkor	112	112	0	155	154	1
Muborak	100	100	0	201	201	0
Nishon	198	197	1	327	327	0
Kasbi	138	138	0	221	221	0
Ko'kdala	214	214	0	173	173	0
Chiroqchi	169	169	0	510	510	0
Shahrisabz	264	264	0	510	510	0
Yakkabog'	184	184	0	496	495	1

Jinslar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. Temurov
75 221-15-84 (7071)

Manzil:
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi shahar, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2 b-uy
